

“TASDIQLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
aksiyadorlarining navbatdan tashqari
umumiy yig‘ilishi qarori bilan
2022-yil 14-oktabrdagi
4-sonli bayonnoma





T.A. Ishmetov
Kuzatuv kengashi Raisi

“RO‘YXATGA OLINGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

2022-yil “ 9 ” *gera Sp6*
son bilan




N.N. Saydullayev
Markaziy bank Raisining
birinchi o‘rinbosari

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI USTAVIGA
KIRITILAYOTGAN O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR**

**2022-yil 14-oktabrdagi bank aksiyadorlarining
navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 4-sonli
bayonnoma-qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ustaviga kiritilayotgan**

O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR

1. Bank Ustavining 2-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Bankning firma nomi:

davlat tilida lotin alifbosida nomi: to'liq – “O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki”, qisqartirilgan holda - Xalq banki;

davlat tilida kiril alifbosida: to'liq – “Ўзбекистон Республикаси акциядорлик тижорат Халқ банки”, qisqartirilgan holda - Халқ банки;

rus tilida: to'liq - “Акционерный коммерческий Халк банк Республики Узбекистан”, qisqartirilgan holda - Халк банк;

ingliz tilida: to'liq - “Joint-stock commercial Xalq bank of the Republic of Uzbekistan”; qisqartirilgan holda - JSC Xalq Bank.

Bank o'z firma nomidan mutlaq foydalanish huquqiga ega.”

2. Bank Ustavining 23-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23. Bankning Ustav kapitali miqdori 7 348 301 908 000 (yetti trillion uch yuz qirq sakkiz milliard uch yuz bir million to'qqiz yuz sakkiz ming) so'm miqdorida belgilangan. Ushbu summa nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 7 348 301 908 (yetti milliard uch yuz qirq sakkiz million uch yuz bir ming to'qqiz yuz sakkiz) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalarga bo'linadi.”

3. Bank Ustavining 24-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“24. Ustav kapitalini oshirish maqsadida, Bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan (qo'shimcha) aksiyalar summasi 12 651 698 092 000 (o'n ikki trillion olti yuz ellik bir milliard olti yuz to'qson sakkiz million to'qson ikki ming) so'm bo'lgan, nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'mlik 12 651 698 092 (o'n ikki milliard olti yuz ellik bir million olti yuz to'qson sakkiz ming to'qson ikki) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar”.

4. 41-bandning i) kichik bandi chiqarib tashlansin, p) – f) kichik bandlar tegishli ravishda i) – u) kichik bandlar deb hisoblansin hamda o) va r) kichik bandlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“o) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi, Kuzatuv kengashi, Bank boshqaruvi, Ichki nazorat tizimi, Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

r) Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;”

5. 45-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“45. Umumiy yig‘ilishlar yillik (hisobot) va navbatdan tashqari yig‘ilishlar tarzida o‘tkaziladi. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibiga moliya yili tugagandan keyin uch oydan kechiktirmay masalalar kiritishga hamda Kuzatuv kengashiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko‘rsatishga haqli.”

6. 49-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“49. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra uning o‘z tashabbusi asosida, shuningdek, yozma talab taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o‘tkaziladi.

Bank Kuzatuv kengashi Markaziy bank tomonidan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish va kun tartibiga kiritilishi belgilangan masalalarni, shu jumladan bank kapitalini bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlay oladigan miqdorgacha ko‘paytirish masalasini ko‘rib chiqishi lozim.

Agar mazkur talab bajarilmagan taqdirda Markaziy bank, bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishi va kun tartibini belgilashi mumkin.

Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko‘ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.”

7. 52-bandning 11) kichik bandi chiqarib tashlansin va 12) – 32)-kichik bandlar mos ravishda 11) – 31) kichik bandlar deb hisoblansin.

8. 57-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“57. Bank boshqaruvi a‘zolari va Boshqaruv raisi, Bankning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a‘zolari bank Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

9. 58-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“58. Kuzatuv kengashi a‘zolari uch yil muddatga saylanadi va cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.”

10. 60-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“60. Kuzatuv kengashi majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki:

Bank aksiyadorlari;

Markaziy bank;

Kuzatuv kengashi a'zosi;

Bank boshqaruvi;

Bank ichki audit xizmati rahbari;

Korporativ maslahatchi;

Bankning tashqi auditori talabi bo'yicha chaqiriladi."

11. 70-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"70. Bank boshqaruvi a'zolarining huquq va majburiyatlari tegishincha, Bank Ustavida hamda ularning har biri bank bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi va Bank Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi."

12. 88-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"88. Bankning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish Kuzatuv kengashi va Auditorlik qo'mitasiga hisobdor bo'lgan Ichki audit xizmati tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi."

13. 89-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"89. Ichki audit xizmati Bankda ichki auditni doimiy tarzda amalga oshiruvchi mustaqil tarkibiy bo'linma hisoblanadi."

14. 90-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"90. Bankning ichki audit xizmati Bank boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonunchilikka, Bank Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, Bank operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Bankni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligini va ularning to'g'ri yo'lga qo'yilganligini baholaydi."

15. 91-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"91. Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashi va Auditorlik qo'mitasini bankning joriy holati va uning ichki nazorat tizimi samaradorligiga oid haqqoniy va mustaqil ma'lumotlar, ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari va bank biznes-jarayonlari tashkil qilinishi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va boshqa qonunchilik hamda mazkur bo'linmaning nizomida belgilangan vazifalarga mas'ul hisoblanadi".

92-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“92. Ichki nazorat xizmati Bankda amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan ichki nazorat tizimini o‘rnatishda mas’ul hamda aniqlangan holatlar bo‘yicha Boshqaruv organlariga hisobdor hisoblanadi”.

16. 93-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“93. Boshqaruv a‘zolari, boshqaruvga bo‘ysunuvchi barcha xodimlar, shuningdek bankka aloqador boshqa shaxslar auditorlik tekshiruvini o‘tkazishda qatnashishga haqli emas”.

Boshqaruv Raisi



Sh. Atabayev

Тикилган ва рақамланган

18 (41 соҳиб)
варақдан иборат

9 декабрь 2022 йил

Имзо

